

Date: 13th July-2026

YANGI ME'MORIY YO'NALISHLARDAGI BEZAK USLUBLARI

Amonov Sardor Xolmurzayevich

Jumaqulov Nuriddin Yusufovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada bezak san'atidagi naqshlarning geometrik tizimidagi garih qadimdan me'moriy bezak san'atida ishlatilib kelinadi. Tugun ma'nosini bildiradigan garih usulida oddiy shakllarga asoslangan naqshning murakkab ko'rinishlari yaratiladi.

Kalit so'zlar: bezak, uslub, texnologiya, gumbaz, kompozitsiya, qubba, geometrik, usul, epigrafik, islamiy.

Keywords: decoration, style, technology, the dome, composition, the dome, geometric, method, epigraphic, Islamic

Klyuchevyye: украшение, стиль, технологии, купол, состав, купол, геометрический, метод, эпиграфический, исламский.

Kirish Temur davri me'morchiligida qurilmalar tizimidagi o'zgarishlar o'z navbatida bezak uslublari ham ta'sirini o'tkazdi. Chunki, saltanat qudrati oshishi bilan birga hududlarda quruvchilik, bunyodkorlik ishlari katta hajmda bajarilishi bilan birga mahobatli inshootlarning qurilmaviy va me'moriy tizimlari bo'yicha yangicha talablar qo'yila boshlandi. Temur davridagi inshootlarning me'moriy yechimi hajmi ko'p hollarda yakka hukmdorning xohishirodasiga bog'liq bo'lgan.

Chunki shakli mahobatli bo'lgan hashamdor binolar hukmdorning qudrati va irodasini ulug'lash vositasi bo'lib kelgan. Ayni vaqtda bu jarayon muhandislar, me'morlar va ustalar oldiga yangi-yangi vazifalar qo'yib, ularni amalga oshirish yo'llarini topishga undagan va talab ham qilingan. Asosiy qism. Klavixoning guvohlik berishicha, Samarqandga kelib Go'ri Amir maqbarasini qurilishini ko'rgan Temur uning yuksakligidan qoniqmagan va binokorlar gumbazni shoshilinch ravishda qayta qurganlar, poygumbazni yana yuqoriroqqa ko'targanlar. Jome' masjidi qurilishida ham ana shu voqea sodir bo'lgan.

Temur uchun bino peshtoqi ulug'vor ko'rinmagan va qayta qurishni buyurgan. Gumbaz tuzilishi ulug'vor inshootlarning me'morlari uchun ma'suliyatli muhandislik masalalardan biri edi. Temur davri me'morchiligining dastlabki bosqichlarida gumbaz tizimi avvalgicha bo'lib, faqat qirralar oralig'i kengaygan. Gumbaz hanuz an'anaviy ravishda to'rtburchak asosdan ravoq bag'allar orqali sakkiz qirralikka o'tadi. Qo'sh qavatli gumbazlar avvallari ham ma'lum bo'lsada, bu paytgacha kelib ichkaridan yoysimon qovurg'alarga tayangan tashqi gumbazni ko'tarib turuvchi poygumbazning balandligi oshirildi.

Temurning an'alarini davom ettirgan Ulug'bek davrida esa muhandislik faniga e'tibor tufayli gumbaz osti tuzilmalarining yangi turlarini izlash va ishlab chiqishga kirishildi. Bu davrdagi yangi turdagi gumbazlar tarhda o'zaro kesishuvchi ko'p qirrali ravoqlarga asoslangan. Hajmiy ko'rinishda esa ular gumbazning nishab asosi uchun



Date: 13th July-2026

yulduzsimon zaminni tashkil etib, qalqonsimon bo'g'imlar tizimi - qatorini hosil qiladi. Gumbaz diametri bu tizimda sakkiz qirralik ravvoq yelkanlariga asoslanuvchi gumbazlarga qaraganda ancha qisqaradi.

Bu xil muhandislik izlanishlar natijasida devordan devorga ayrisimon tushuvchi to'rt ravvoqli tizim yaratilib ular oralig'i qalqonsimon bag'allar va osma ganch quyma elementlar bilan to'latiladi. To'rt o'zaro kesishuvchi ravvoqli tizim toshdan bajarilgan ko'rinishi Kavkaz me'morchiligidan ma'lum edi. Lekin, Movarounnahrda bu tizimning asosiy qurilish materiali pishiq g'isht bo'lgan mahalliy turlari yaratildi.

Ravoqlar oralig'ini to'ldirishning hajmiy murakkab yo'llari tufayli konstruktiv – me'moriy yechimdan tashqari ta'sirchan bezak xususiyatlarini ham bu tizimga kiritdilar. Mazkur tizimning afzalligi ana shundaki, yopiq murabba o'rniga asosiy ravoqlar oralig'ida keng va chuqur tokchalar yoki umuman ochiq joylar qoldirish tufayli ichki ko'rinishni ancha kengaytirib yuborish mumkin.

Material va qurilmalarning takomillashuvi qurilish jarayonini tezlashishiga ham olib kelgan. Chunonchi, Sharafuddin Ali Yazdiy 1396 yili Temurning farmoni bilan Bog'i Dilkushodagi saroy barpo etilishi to'g'risida quyidagicha hikoya qiladi.

“Uning balandligi bir yerga yetar-yetmas, koshinkorlar naqsh va qoplama ashyolarni tayyorlashni boshladilar. Sangtaroshlar tosh yo'nishga, musavvir tasvir chizishga, duradgor yog'och o'yishga va eshik tayyorlashga kirishdilar, palos to'quvchilar xona va shoxnishinlarni o'lchab chiqib, ishni boshlab yubordilar [4]. Tunlari shamchiroq yoqib qo'ydilar, har bir ishning o'z sarkori bor edi. Shunday uzunlikdagi va baland ayvonli saroy 16 kunda qurib bitkazildi”. Bu tarixiy ma'lumotdan ko'rinish turibdiki, bezak va sayqal ishlari bino hajmi qurilishi bilan birga olib borilgan. Muhandis va me'morlar usta va shogirdlarning har bir ishining dastlabki hisobi va rejasini olib boshqara olganlar. Temur davridan avval ham, keyin ham, umuman hech qachon Movarounnahr va Xuroson me'morchiligida me'moriy bezak bu qadar yuksak darajaga yetishmagan edi. Uning mavjud turlaridan va oldingi avlodlarning tajribasidan foydalangan holda ustalar texnik va texnologiya usullarni takomillashtiribgina qolmay, yangilarini ham ishlab chiqishdi, bezak mavzularini boyitishdi.

Binolar tashqi va ichki ko'rinishida qoplama va devoriy surat - naqshlar devorlarning katta sirtlarini bezatishi bu davr me'morchiligining o'ziga xos xususiyatiga aylandi. Temur davri me'morchiligi bezakda ko'p ranglik va naqshga boyitish shiori ostida rivojlandi.

Koshin bezaklarni qo'llashda bu davrga ikki yo'nalish bo'lib, ulardan birinchisi XIV asrning o'rtalaridan boshlab binoning old tomoni va ichkarisida sirtlarni butunlay koshin bilan qoplashga intilish bo'lsa, ikkinchisi XIV asrning oxiri va XV asrning boshlarida bino oldi, gumbaz, peshtoq va hoshiyalar yorqin rangda, xususan gumbaz tiniq zangori rangda qilingan. Naqshning Temur davridan avvalgi handasaviy, epigrafik, islamiy turlari hanuz yonma-yon ishlatilsada, lekin uslublari murakkablashdi. Handasaviy naqshlar birinchi bosqichda alohida hoshiyalar va mo'jaz namoyonlarda qo'llanilgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda devor va qubbalarining katta sathlarini bezatishda ishlatila bshlandi. Bunda rangli va sirkor koshinlar devor g'ishti fonida juda yirik girih shaklini hosil qiladi.



Date: 13th July-2026

U odatdagi to'g'ri chiziqda emas, diagonal to'rda, qubbalarda yoysimon, minoralarda spiral bo'yicha shakllanadi.

O'zbekiston me'morchiligi tarixidan ma'lumki bu davrda binolarni bunyod etishdan avval uning umumiy ko'rinishi va qurilmalari, naqsh bezaklariga oid murakkab geometrik hisob-kitoblar, matematik formulalarga asoslangan rejasi ishlab chiqilgan. Bu yerda shuni qayd etish lozimki, me'moriy san'at ustalari soha-sohaga bo'linib ish olib borganlar. Bu haqda o'zbek olimlari tadqiqotlarida (P.Zohidov, M.Bulatov va boshqalar) ko'plab tarixiy ma'lumotlar keltiriladi. P.Zohidovning yozishicha "Hirotdagi Masjidi Jome' ta'mir etilayotganda bezak ustalarining ishi to'xtab qoladi. Chunki ular tegishli chizmalarni, ya'ni Xoja Mirak Naqqosh taxallusli Said Ruhullo xattot tomonidan chizib berilishi lozim bo'lgan, kalligrafik (xattotiy) naqshlarni o'z vaqtida olmagan ekanlar" [1]. Ana shu misoldan ko'rindiki, bino rejasining turli qismlari alohida ustalar tomonidan tayyorlanib me'mor bu faoliyatni muvofiqlashtirib, boshqargan. Hozirda ma'lum qadimiy chizmalar XVI asrga taalluqli bo'lib, ular Buxoroda topilgan. Bezak san'atidagi naqshlarning geometrik tizimidagi girih qadimdan me'moriy bezak san'atida ishlatilib kelinadi. Tugun ma'nosini bildiradigan girih usulida oddiy shakllarga asoslangan naqshning murakkab ko'rinishlari yaratiladi. Mashhur ustalar o'zaro kesishuvchi chiziqlar va tugunlarining joylashuvining turli-tuman tizimini yaratish usullarini bilganlar. Ularning yasash qoidalari ham turli tuman bo'lgan. Hozirda ko'plari unutilib ketgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, girihning sodda yoki murakkab bo'lishidan qat'iy nazar taqsim (rapport) deb atalgan juda oddiy elementdan tashkil etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ruziboboyev, A. (2023). REQUIREMENTS AND THEIR SOLUTIONS FOR THE DESIGN OF UNIVERSITY SCHOOLS. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 463-466.
2. Ruziboboyev, A. (2025). UCHQIZIL SUV OMBORI ATROFIDA BOG '-PARKLAR VA DAM Olish MASKANLARINI BARPO ETISH-EKOTURIZM VA SHAHARSOZLIKNING YANGI YO 'NALISHI. *Latin American journal of education*, 5(7), 479-483.
3. Azamat o'g, R. Z. A. (2025). TERMIZ SHAHRI LANDSHAFTI VA EKOLOGIYASINI YAXSHILASHNING INNOVATSION YO 'LLARI. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 2(11), 66-69.
4. Azamat o'g, R. Z. A., & Yusufovich, J. N. (2025). KO 'KALAMZORLASHTIRISH ORQALI TERMIZ SHAHRIGA KELADIGAN SHAMOL VA CHANG-TO 'ZONLAR YO 'LINI TO 'SISH USULLARI LOYIHA TAKLIFLAR. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 2(11), 136-139.
5. Azamat o'g, R. Z. A. (2025). TERMIZ SHAHRIDA BOG '-PARKLAR VA HIYOBONLARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA LOYIHA TAKLIFLAR. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 2(11), 132-135.



Date: 13th July-2026

6. Azamat o'g, R. Z. A. Old Termez in Historical Sources (Xix-early XX Centuries). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(12), 1507-1513.

7. Nazarov, B., Alikulov, S., Ochildiev, O., Khudoykulov, R., Roziboboyev, A., & Togayaliyev, S. Study of Physical and Mechanical Properties of Manure Collected on Open Soil Surfaces.

